



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

# YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
**e** LIBRARY.RU

# YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

# LAWYER HERALD

ISSUE 2



**MINGBOYEVA Sakinabonu Shuhrat qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va  
inson huquqlari sho'basini o'qituvchisi,  
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktranti  
E-mail: [mingbovevasakinabonu0202@gmail.com](mailto:mingbovevasakinabonu0202@gmail.com)

## **RAMSAR KONVENSIYASINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA IMPLEMENTATSIYASI**

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): MINGBOYEVA S.Sh.**  
Ramsar Konvensiyasining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida implementatsiyasi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 145-153.

 2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-015>

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Ramsar konvensiyasining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida implementatsiyasi normativ-huquqiy, institutsional hamda qiyosiy-huquqiy yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi Konvensiya talablarining milliy huquq tizimiga integratsiyalashuv darajasi va samaradorligini aniqlashdan iborat. Maqola doirasida xalqaro ahamiyatga molik botqoqli hududlarni ro'yxatga olish, ularning ekologik xarakterini saqlash hamda oqilona foydalanish tamoyilini ta'minlash mexanizmlari tizimli ravishda ko'rib chiqiladi. Tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasida mazkur majburiyatlarning normativ asoslari shakllanganligi, biroq ularning amaliy qo'llanilishida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolayotgani asoslandi. Xususan, "ekologik xarakter" va "oqilona foydalanish" tushunchalarining milliy qonunchilikda aniq mezonlar bilan mustahkamlanmagani aniqlanadi. Shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar instituti hamda suv va ekologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida yetarli darajada integratsiya va muvofiqlashtirish ta'minlanmagani ko'rsatib beriladi. Monitoring va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi institutsional va metodologik cheklorlar bilan izohlanadi. Muallif tomonidan "oqilona foydalanish" tushunchasining ekologik yaxlitlik, barqaror yuklama, ehtiyotkorlik prinsipi, adaptiv boshqaruv hamda sektorlararo muvofiqlashtirish mezonlari asosida normativ talqini taklif etiladi. Mazkur yondashuv indikatorlar tizimi, boshqaruv rejimi va huquqiy oqibatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali Konvensiya talablarini samarali institutsionallashtirish zaruratini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** Ramsar konvensiyasi, botqoqli hududlar, ekologik xarakter, oqilona foydalanish, implementatsiya, ekologik huquq, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, suv huquqi, monitoring, adaptiv boshqaruv.

**МИНГБОЕВА Сакинабону**

Преподаватель кафедры международного  
Права и прав человека Ташкентского  
государственного юридического университета,  
базовый докторант Ташкентского государственного  
юридического университета  
E-mail: [mingboyevasakinabonu0202@gmail.com](mailto:mingboyevasakinabonu0202@gmail.com)

## ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ РАМСАРСКОЙ КОНВЕНЦИИ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

### АННОТАЦИЯ

В данной статье имплементация Ramsar Convention в законодательстве Республики Узбекистан рассматривается на основе нормативно-правового, институционального и сравнительно-правового подходов. Цель исследования заключается в определении уровня и эффективности интеграции положений Конвенции в национальную правовую систему. В рамках исследования анализируются вопросы включения водно-болотных угодий в перечень территорий международного значения, сохранения их экологического характера, а также обеспечения принципа рационального использования. Результаты анализа показывают, что в Республике Узбекистан сформирована необходимая нормативная база, однако её практическая реализация сопровождается рядом системных проблем. В частности, установлено отсутствие чёткой правовой конкретизации понятий «экологический характер» и «рациональное использование». Кроме того, выявляется недостаточная согласованность между институтом особо охраняемых природных территорий и нормативно-правовыми актами в сфере водного и экологического права. Отмечается, что действующие механизмы мониторинга и управления ограничены институциональными и методологическими факторами, что снижает их эффективность. Автором предлагается нормативная интерпретация понятия «рациональное использование», основанная на критериях экологической целостности, устойчивой нагрузки, принципа предосторожности, адаптивного управления и межсекторной координации. Обосновывается необходимость институционализации данных подходов через взаимосвязанную систему «индикаторы – режим управления – правовые последствия».

**Ключевые слова:** Рамсарская конвенция, водно-болотные угодья, экологический характер, разумное использование, имплементация, экологическое право, особо охраняемые природные территории, водное право, мониторинг, адаптивное управление.

**SAKINABONU Mingboeva**

Lecturer at the Department of International  
Law and Human Rights of the Tashkent State University of Law  
Basic Doctoral Student of Tashkent State University of Law  
E-mail: [mingboyevasakinabonu0202@gmail.com](mailto:mingboyevasakinabonu0202@gmail.com)

## IMPLEMENTATION OF THE RAMSAR CONVENTION IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### ANNOTATION

This article examines the implementation of the Ramsar Convention within the legal framework of the Republic of Uzbekistan through normative-legal, institutional, and comparative legal approaches. The study aims to assess the level and effectiveness of integrating the Convention's provisions into the national legal system. It focuses on key aspects such as the designation of wetlands of international importance,

the maintenance of their ecological character, and the operationalization of the principle of wise use. The findings indicate that Uzbekistan has established a formal regulatory framework in this field; however, its practical implementation is constrained by several systemic challenges. In particular, the concepts of "ecological character" and "wise use" lack precise legal definition and measurable criteria within national legislation. Furthermore, insufficient coordination is observed between the system of protected natural areas and the broader body of water and environmental law. It is also noted that existing monitoring and governance mechanisms are limited by institutional and methodological constraints, which affects their overall effectiveness. The author proposes a normative interpretation of "wise use" based on ecological integrity, sustainable load, the precautionary principle, adaptive management, and cross-sectoral coordination. The study substantiates the need to institutionalize these approaches through an integrated framework linking indicators, management regimes, and legal consequences.

**Keywords:** Ramsar Convention, wetlands, ecological character, wise use, implementation, environmental law, protected natural areas, water law, monitoring, adaptive management.

1997-yildan buyon 2-fevral Butunjahon suvli-botqoq yerlar kuni sifatida dunyo davlatlari tomonidan e'tirof etib kelinayotganligi uning xalqaro maydondagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Botqoqli hududlar ekotizim xizmatlari suvni tabiiy filtrlash, suv toshqinlarini yumshatish, biologik xilma-xillikni saqlash kabi funksiyalarni bajarishi bilan barqaror rivojlanish jarayonida muhim o'rin tutadi. Shu bois 1971-yil 2-fevralda Eronning Ramsar shahrida qabul qilingan BMTning Suvda suzuvchi qushlarning asosiy yashash manzili bo'lgan xalqaro ahamiyatga ega suvli-botqoq yerlar to'g'risidagi konvensiyasi (Ramsar Konvensiyasi) botqoqli hududlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan asosiy universal xalqaro-huquqiy hujjat sifatida namoyon bo'ladi [1]. Suvli-botqoq hududlar o'ziga xos ekologik tizim sifatida yuqori darajadagi biologik xilma-xillikni shakllantiradi. Mazkur hududlarda o'simlik qoplami, asosan, uch asosiy ekologik guruhdan iborat: birinchidan, suv ostida o'suvchi gidrofit o'simliklar; ikkinchidan, suv yuzasida suzuvchi yoki suv sathiga qisman chiqib turuvchi o'simliklar; uchinchidan, nam va botqoq tuproqlarda rivojlanadigan gelofit va gigrofit o'simliklar. Ushbu o'simliklar nafaqat ekotizimning barqarorligini ta'minlaydi, balki ko'plab qush turlari uchun in qurish, yashirinish va yirtqichlardan himoyalash muhiti vazifasini bajaradi. Suvli-botqoq hududlar ko'plab noyob va endemik turlar uchun yashash makoni bo'lib, ayrim turlar uchun esa asosiy ko'payish va migratsiya nuqtasi hisoblanadi. Ayniqsa, yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan bir qator o'simlik va hayvon turlari aynan shu ekotizimlarda saqlanib qolmoqda. Shu bois suvli-botqoq hududlar biologik xilma-xillikni muhofaza qilish tizimida strategik ahamiyat kasb etadi. Chuchuk suvli botqoqlarda, asosan, o'tlar, yovvoyi gullar va butalar keng tarqalgan bo'lsa, sho'r suvli botqoqlarda qamish, sho'ra va sho'rlanishga moslashgan boshqa halofit o'simliklar ustunlik qiladi. Ushbu o'simlik qoplami suvni tabiiy ravishda ushlab turish, suv oqimini tartibga solish va eroziya jarayonlarini kamaytirishda muhim ekologik funksiyani bajaradi. Natijada, mahalliy daryo va ko'llarning toshqin xavfi pasayadi hamda tuproqning degradatsiyaga uchrashi oldi olinadi [2]. Hayvonot dunyosi nuqtayi nazaridan ham suvli-botqoq hududlar boy va murakkab trofik tizimni tashkil etadi. Sutemizuvchilardan qunduz, kiyik, qorako'zan va ondatra kabi turlar suv bilan bog'liq muhitda yashaydi. Sudraluvchilar va amfibiyalar timsoh, ilon, toshbaqa, triton va salamandra kabi turlar ham aynan shu hududlarda tarqalgan. Bundan tashqari, qisqichbaqalar, chivinlar, ninachilar kabi ko'plab umurtqasiz organizmlar suvli-botqoq ekotizimlarining ajralmas qismi bo'lib, oziqa zanjirining muhim bo'g'inini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi suv resurslari cheklangan, iqlim o'zgarishi muammolari katta salbiy ta'sir ko'rsatayotgan mintaqada joylashgan davlat sifatida botqoqli hududlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratishi zarur. Ayniqsa, Orolbo'yi hududidagi ekologik inqiroz, ko'llar tizimining gidrologik rejimiga irrigatsion ta'sirlar,

shoʻrlanish va suv sathining oʻzgaruvchanligi botqoqli hududlarning ekologik xarakterini saqlash masalasini murakkablashtiradi. Bunday sharoitda Ramsar konvensiyasining milliy qonunchilikka implementatsiyasi nafaqat xalqaro majburiyatlarni bajarish, balki milliy ekologik xavfsizlikni taʼminlash vositasi sifatida ham namoyon boʻladi. Shu bilan birga, xalqaro huquq normalarining milliy huquq tizimiga transformatsiyasi masalasi nazariy va amaliy jihatdan murakkab jarayon boʻlib, koʻpincha normativ-huquqiy hujjatlar va vakolatli organlar amaliyoti oʻrtasida tafovut yuzaga keladi. Ayniqsa, oqilona foydalanish konsepsiyasining mazmuni, uning milliy qonunchilikdagi ifodasi va institutsional mexanizmlari yetarlicha aniqlashtirilmagan hollarda implementatsiya deklarativ xarakter kasb etishi mumkin. Mazkur holat maqola mavzusining ilmiy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Ramsar konvensiyasida belgilangan davlat majburiyatlarining Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida aks etish darajasi va ularning amaliy implementatsiya mexanizmlarini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Birinchidan, Konvensiyada mustahkamlangan asosiy prinsip va majburiyatlarning normativ mazmunini aniqlash; ikkinchidan, ularning milliy konstitutsiyaviy va tarmoq qonunchiligida ifodalanish shakllarini aniqlash; uchinchidan, institutsional mexanizmlarning samaradorligini baholash; toʻrtinchidan, qonunchilik va amaliy ijro oʻrtasidagi tafovutlarni aniqlash. Xalqaro ekologik huquqning implementatsiya nazariyasi, xususan, davlatlarning shartnoma majburiyatlarini milliy huquq tizimiga inkorporatsiya qilish va transformatsiya qilish mexanizmlarini oʻrganish bilan uzviy bogʻliqdir. Shu maʼnoda, maqolada qoʻyilgan masala nafaqat amaliy, balki nazariy ahamiyatga ham ega boʻlib, xalqaro majburiyatlarning milliy darajadagi samaradorligini baholash mezonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ramsar konvensiyasi va botqoqli hududlardan oqilona foydalanish konsepsiyasi xalqaro ekologik huquq doktrinasida keng muhokama qilingan masalalardan biridir [3]. Xorijiy adabiyotlarda, avvalo, oqilona foydalanish tamoyilining evolyutsiyasi va uning barqaror rivojlanish paradigmasi bilan oʻzaro bogʻliqligi chuqur tahlil qilingan [4]. M. C. Finlayson va C. M. Davidson botqoqli hududlarning ekologik xarakterini saqlash Konvensiyaning markaziy elementi ekanini taʼkidlab, oqilona foydalanishni faqat resursdan foydalanish emas, balki ekotizim yondashuvi asosida boshqaruv modeli sifatida talqin etadi [5,6]. A. Matthews esa Ramsar mexanizmini “soft compliance” modeli sifatida baholab, uning samaradorligi milliy darajadagi siyosiy iroda va institutsional imkoniyatlarga bevosita bogʻliqligini qayd etadi [7]. R. Gardner va D. Finlayson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Ramsar konvensiyasining implementatsiyasi biologik xilma-xillikni saqlash va suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish tizimi (IWRM) bilan uzviy aloqada koʻrib chiqiladi [8]. Shuningdek, P.Sand xalqaro ekologik shartnomalarning milliy huquq tizimiga transformatsiyasi jarayonida norma va ijro oʻrtasidagi tafovut doimiy muammo boʻlib qolayotganini asoslaydi [9]. Mazkur yondashuv Ramsar konvensiyasi doirasida ham dolzarbdir.

MDH olimlari orasida D.R.Ziganshina transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda adolatli va oqilona foydalanish tamoyillarining Markaziy Osiyo sharoitida qoʻllanishini tahlil qilib, botqoqli hududlarni muhofaza qilish mintaqaviy hamkorlikning ajralmas qismi ekanini taʼkidlaydi [10]. V.V.Romanov ekologik xavfsizlik konsepsiyasini rivojlantirar ekan, xalqaro ekologik majburiyatlarning milliy huquqda aniq normativ mexanizmlar bilan mustahkamlanmagani ularning samaradorligini pasaytirishini qayd etadi.

Oʻzbek olimlari tomonidan ham suv resurslari va ekologik huquq masalalari tadqiq etilgan. H.Sh. Hayitov tomonidan iqlim oʻzgarishini hisobga olmaslik suv qonunchiligidagi asosiy muammolardan biri sifatida uning qurgʻochilik, toshqinlar va suv oqimlarining taqsimlanishidagi oʻzgarishlar xavfning oshishiga taʼsiri alohida taʼkidlangan. O.Q.Tobirov tomonidan keltirilishicha, Ramsar hududlarining geografik taqsimoti nomutanosib boʻlib, Shimoliy yarimsharning ustunligi (86.5%)

yer massasining ko‘proq mavjudligi va rivojlangan mamlakatlarning Ramsar konvensiyasida faol ishtiroki bilan bog‘liq [11].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, xorijiy adabiyotlarda Ramsar konvensiyasi ko‘proq global boshqaruv, ekotizim yondashuvi va biologik xilma-xillikni saqlash nuqtayi nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa, MDH va milliy tadqiqotlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish va transchegaraviy hamkorlik masalalariga urg‘u berilgan. Biroq, O‘zbekiston Respublikasida Ramsar konvensiyasining implementatsiyasi, oqilona foydalanish konsepsiyasining milliy huquqiy tizimdagi mazmuni va institutsional mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks va tizimli baholashga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur holat ushbu maqolada qo‘yilgan ilmiy masalani chuqurroq o‘rganish zaruratini asoslaydi.

Ramsar konvensiyasi botqoqli hududlarni muhofaza qilishga qaratilgan xalqaro shartnomaviy rejim sifatida davlatlar zimmasiga aniq mazmundagi majburiyatlar tizimini yuklaydi. Ushbu tizimning huquqiy mantiqi, avvalo, xalqaro ahamiyatga molik botqoqli hududlarni identifikatsiya qilish va ro‘yxatga olish, keyin esa mazkur hududlarning ekologik yaxlitligini saqlash hamda oqilona foydalanish tamoyili asosida ulardan barqaror foydalanishni ta‘minlashdan iborat. Konvensiya doirasidagi oqilona foydalanish tamoyili oddiy resursdan foydalanish emas, balki ekotizim yondashuvi, manfaatlar muvozanati va ehtiyotkorlik tamoyillariga tayangan boshqaruv modelini anglatadi. Shuning uchun ham implementatsiya masalasi faqat shartnomani ratifikatsiya qilish yoki umumiy ekologik normalarni qabul qilish bilan yakunlanmaydi: xalqaro majburiyatning milliy huquqda “ishlaydigan” mexanizmga aylanishi normativ institutlar, institutsional vakolatlar taqsimoti, monitoring, hisobot va ijro choralarning uyg‘un tizimini talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida Ramsar konvensiyasining implementatsiyasi, bir tomondan, botqoqli hududlarning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan, ikkinchi tomondan esa mamlakatning suv resurslari cheklangan, gidrologik rejimlari o‘zgaruvchan mintaqada joylashganligi bilan belgilanadi. Dunyoning 170 dan ortiq davlatlarini o‘zida jamlagan mazkur konvensiya mamlakatimiz tomonidan 2001-yilda milliy qonunchilikka ratifikatsiya qilingan bo‘lib, hozirgi kunga qadar 5 ta hudud Ramsar obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan. Ramsar hukumati tomonidan e‘lon qilingan yerlarni Konvensiya kotibiyati Xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suvli-botqoq yerlar ro‘yxatiga (Ramsar List of Wetlands of international Importance) kiritadi. O‘zbekiston miqyosida Dengizko‘l 2001-yilda, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi 2008-yilda va To‘dako‘l hamda Quyimazor suv omborlari 2020-yilda, Sudoche ko‘llar tizimi 2023-yilda, Jiltirbas ko‘li 2024-yilda uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar natijasida Ramsar ro‘yxatidan joy olgan [12].

Botqoqli hududlar suvni tabiiy filtrlash, suv rejimini barqarorlashtirish, ko‘chib yuruvchi qushlar uchun yashash muhiti, biologik xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash hamda iqlimga moslashuv mexanizmlarini kuchaytirish kabi ekotizim xizmatlari orqali ekologik xavfsizlikning tarkibiy elementi hisoblanadi. Mazkur xizmatlar, ayniqsa, Orolbo‘yi hududida ekologik degradatsiya jarayonlari kuchaygan sharoitda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Ramsar majburiyatlari milliy darajada xalqaro e‘tirofni ta‘minlash vositasi bilangina cheklanmay, amaliy ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladigan huquqiy instrument sifatida qaralishi lozim. Milliy huquqiy tizimda Ramsar konvensiyasi talablari, asosan, umumiy ekologik va tabiiy resurslar huquqi orqali implementatsiya qilingan.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida atrof-muhit musaffoligini saqlash, 49-moddasida qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi, 68-moddasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurligining qayd etilganligi uning davlat siyosatida naqadar muhim o‘rin tutishini namoyon qiladi [13].

Ikkinchidan, Ekologiya huquqi, suv huquqi, xalqaro huquq nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, Ramsar konvensiyasi implementatsiyasini ta‘minlovchi huquqiy normalar normativ-huquqiy

hujjatlar ko'rinishida milliy qonunchilikka tatbiq etilgan [14]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi, Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida, Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida, Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori kabi suvga doir 100 dan ortiq qaror va farmonlari qabul qilingan. Bularning barchasi konvensiyaning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinganligining yorqin ifodasidir.

Uchinchi muhim yo'nalish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar instituti bo'lib, u botqoqli hududlarni alohida boshqaruv rejimiga ega hudud sifatida belgilash, zonalash, foydalanish cheklovlarini joriy etish, boshqaruv rejalari va monitoring tizimini shakllantirish imkonini beradi. Aynan shu institut Ramsar obyektlarining hududiy-huquqiy maqomini aniq belgilash nuqtayi nazaridan muhimdir.

Shu bilan birga, suv huquqi va suv boshqaruvi komponenti Ramsar implementatsiyasining markaziy masalalaridan biridir. Botqoqli hududlarning ekologik holati gidrologik rejimiga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ularni muhofaza qilish choralari suv ajratish, irrigatsion-drenaj oqimlari, suv omborlari ekspluatatsiyasi va suv xo'jaligi infratuzilmasi bilan uzviy tutashadi. Demak, Ramsar majburiyatlarining samarali ijrosi faqat ekologiya yo'nalishidagi vakolatli organ faoliyati bilan cheklanmasdan, suv xo'jaligi boshqaruvi, hududiy boshqaruv va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtiradigan institutsional integratsiyani talab qiladi. Bu holat implementatsiyani sektorlararo boshqaruv sifatida ko'rishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida konvensiya majburiyatlarining ijrosini ta'minlashda Vazirlar Mahkamasi, Suv xo'jaligi vazirligi va uning hududiy bo'limlari, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi va uning bo'limlari va boshqa muassasalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'tkazilgan normativ-huquqiy va institutsional tahlil O'zbekiston Respublikasida Ramsar konvensiyasining implementatsiyasi ma'lum darajada shakllanganini, xususan, umumiy ekologik qonunchilik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar instituti orqali huquqiy asos yaratilganini ko'rsatadi. Biroq mazkur modelning konseptual zaif nuqtasi sifatida Ramsarga xos bo'lgan ekologik xarakter va oqilona foydalanish kategoriyalarining milliy qonunchilikda mustaqil normativ institut sifatida to'liq mezonlashtirilmaganligi ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi suv va ekologiya qonunchiligida mazkur atamaning aniq izohi keltirilmagan bo'lib, bu uning amaliyotda qo'llanilishida noaniqliklar keltirib chiqaradi. Hozirda qo'llanilayotgan yondashuvda oqilona foydalanish, ko'pincha, umumiy resurslarni tejash yoki zarar yetkazmaslik qoidalari bilan cheklanib qolgan. Vaholanki, Ramsar talabi ekologik xarakter elementlarini belgilash, ularni monitoring ko'rsatkichlariga bog'lash va moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi.

Tahlil jarayonida Ramsar konvensiyasi implementatsiyasi holatida quyidagi muammolar borligi ham qayd etildi.

Birinchidan, terminologik va normativ fragmentarlik, ya'ni Ramsar konvensiyasi terminlari milliy huquq tarmoqlariga aniq va yaxlit holda singdirilmagan bo'lib, bu implementatsiyani tizimli baholashni qiyinlashtiradi. Konvensiyaning 1-moddasida "wetlands" (suvli-botqoq hududlar) tushunchasi keng va integrativ mazmunda talqin qilinadi. Unga tabiiy yoki sun'iy, doimiy yoki vaqtinchalik, oqimli yoki turg'un suv havzalari, botqoqliklar, ko'llar, daryolar, suv omborlari hamda dengiz sohilining 6 metr gacha chuqurlikdagi hududlari kiradi. Mazkur yondashuv suvli-botqoq hududlarni yagona ekologik tizim sifatida ko'rishni nazarda tutadi va ularning huquqiy muhofazasini kompleks asosda ta'minlashni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida esa ushbu tushuncha yagona normativ ta'rif shaklida mustahkamlanmagan bo'lib, u turli huquq

tarmoqlari doirasida parchalanib qoʻllaniladi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining Suv kodeksida “suv obyektlari” kategoriyasi orqali koʻllar, daryolar va boshqa suv havzalari tartibga solinadi. “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi qonunida esa qoʻriqxonalar, milliy bogʻlar va boshqa muhofaza etiladigan hududlarni alohida institut sifatida belgilaydi. Shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida” qonunida “ekologik tizimlar” va “tabiiy landshaftlar” tushunchalari qoʻllanilib, ularning muhofazasi umumiy ekologik-huquqiy tamoyillar asosida tartibga solinadi. Shu bois, “suvli-botqoq hududlar” tushunchasining Ramsar talqiniga mos yagona normativ taʼrifi mavjud emasligi implementatsiyaning tizimli va izchil amalga oshirilishini murakkablashtiradi hamda xalqaro majburiyatlarning milliy huquq tizimiga toʻliq integratsiyalashuviga toʻsqinlik qiladi.

Ikkinchidan, Oʻzbekistonda suvli-botqoq hududlarga taʼsir qiluvchi qarorlar sektorlar kesimida qabul qilinadi: suv ajratish suv xoʻjaligi tizimida, yer ajratish hududiy rejalashtirish doirasida, infratuzilma loyihalari esa qurilish tartibida koʻrib chiqiladi. Ramsar yondashuvida esa ushbu hudud yagona ekotizim sifatida baholanadi. Amaldagi normativ tizimda ekologik talablar umumiy prinsip sifatida mustahkamlangan boʻlsa-da, sektorlararo kolliziya yuzaga kelganda manfaatlar muvozanatini taʼminlaydigan maxsus, integratsiyalashgan protsedural mexanizm alohida institut sifatida shakllanmagan. Natijada gidrologik rejim, bioxilma-xillikni saqlash va xoʻjalik manfaatlari oʻrtasidagi muvozanat koʻpincha amaliy kelishuvlar orqali hal etiladi.

Uchinchidan, Oʻzbekistonda suvli-botqoq hududlar boʻyicha monitoring tizimi mavjud boʻlsa-da, maʼlumotlarning sektorlararo integratsiyasi va ularni boshqaruv qarorlariga tizimli ravishda ulash mexanizmlari yanada takomillashtirishni talab etadi. Gidrologik, ekologik va yer monitoringi turli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi hamda ularning metodologik yondashuvlari va koʻrsatkichlari har doim ham yagona indikatorlar tizimiga birlashtirilmagan. Ramsar konvensiyasida nazarda tutilgan “ekologik xarakter”ni saqlash talabi esa maʼlumotlarning uzluksiz tahlili va tezkor boshqaruv choralarini talab qiladi. Amaldagi tartibda monitoring natijalari suv ajratish, yer ajratish yoki infratuzilma loyihalarini tasdiqlash jarayoniga bevosita bogʻlangan majburiy protsedural mexanizm sifatida toʻliq shakllanmagan. Shu bois, ekologik oʻzgarishlar haqidagi axborotni boshqaruv qarorlariga tezkor integratsiya qilish institutsional jihatdan yanada mustahkamlashni talab etadi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni koʻrsatadiki, ayrim davlatlar Ramsar majburiyatlarini milliy darajada bevosita ishlaydigan mexanizmga aylantirish uchun maxsus siyosiy-huquqiy instrumentlarni joriy etgan. Masalan, Avstraliyada Ramsar obyektlari milliy qonunchilikka integratsiyalashgan boʻlib, ular Environment Protection and Biodiversity Conservation Act 1999 doirasida “milliy ahamiyatga ega ekologik obyekt” sifatida eʼtirof etiladi [15]. Ushbu tizimda Ramsar hududlari uchun boshqaruv rejalarini ishlab chiqish va ularni “Australian Ramsar management principles”ga muvofiq holda baholash majburiy talablardan hisoblanadi [16]. Natijada “rejalashtirish-baholash-monitoring” zanjiri federal darajada huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Hindistonda esa botqoqli hududlar boshqaruvi Wetlands (Conservation and Management) Rules, 2017 asosida tartibga solinadi [17]. Mazkur qoidalar shtat darajasida vakolatli organlar tuzishni, inventarizatsiya yuritishni, boshqaruv rejalarini ishlab chiqishni hamda monitoring koʻrsatkichlari asosida davriy koʻrib chiqishni nazarda tutadi. Ramsar obyektlari umumiy wetlands boshqaruvi tizimi doirasida alohida eʼtibor obyektiga aylantirilgan.

Janubiy Afrika amaliyotida ham botqoqli hududlarni muhofaza qilish integratsiyalashgan ekologik boshqaruv modeli asosida amalga oshiriladi. National Environmental Management Act 1998 va milliy bioxilma-xillik siyosati doirasida rejalashtirish, ruxsat berish va monitoring jarayonlari oʻzaro bogʻlangan holda yuritiladi. Bu yondashuv suvli-botqoq hududlar boʻyicha qarorlarni strategik ekologik baholash mexanizmlari bilan uygʻunlashtirishga imkon beradi.

Umuman olganda, mazkur davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, Ramsar majburiyatlarining samarali implementatsiyasi uchun (1) maxsus boshqaruv prinsiplari, (2) majburiy boshqaruv rejalarini, (3) monitoring natijalarini ruxsat berish jarayoniga bog'lovchi protsedural mexanizm va (4) sektorlararo muvofiqlashtirishning normativ asoslari zarur. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham suvli-botqoq hududlar bo'yicha integratsiyalashgan va protsessual jihatdan mustahkam model ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

O'tkazilgan normativ-huquqiy, institutsional va qiyosiy tahlillar O'zbekiston Respublikasida Ramsar konvensiyasi majburiyatlarining formal-huquqiy jihatdan tan olinganini hamda umumiy ekologik va tabiiy resurslar qonunchiligi doirasida muayyan implementatsiya asoslari shakllanganini ko'rsatadi. Ramsar ro'yxatiga kiritilgan botqoqli hududlarning mavjudligi, milliy hisobotlar taqdim etilishi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar instituti amal qilayotgani Konvensiyaning "ro'yxatga olish" va "hisobot berish" majburiyatlari bajarilayotganini tasdiqlaydi.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ramsar konvensiyasining mazmuniy o'qi bo'lgan oqilona foydalanish tushunchasi milliy huquq tizimida yetarli darajada mezonlashtirilmagan va mustaqil normativ institut sifatida tizimlashtirilmagan. Amaldagi yondashuvda oqilona foydalanish umumiy ekologik prinsiplar resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, barqaror rivojlanish g'oyalari orqali ifodalanadi, biroq u botqoqli hududlarning ekologik xarakterini saqlashga qaratilgan aniq indikatorlar va huquqiy oqibatlar bog'langan mexanizm ko'rinishida mustahkamlanmagan. Natijada monitoring ma'lumotlari va ekologik ko'rsatkichlar boshqaruv qarorlarini avtomatik ravishda shakllantiradigan huquqiy triggerga aylanish darajasiga yetmagan. Shu munosabat bilan, Ramsar konvensiyasini samarali implementatsiya qilish maqsadida oqilona foydalanish tushunchasini normativ-huquqiy darajada quyidagi aniq mezonlar asosida belgilash maqsadga muvofiq:

Birinchidan, ekologik xarakter yaxlitligini saqlash mezonini. Har bir Ramsar obyektida ekologik xarakter tarkibiy elementlari (gidrologik rejim, suv sathi chegaralari, sho'rlanish ko'rsatkichi, asosiy bioindikator turlar populyatsiyasi) normativ hujjatda minimal va maksimal ruxsat etilgan chegaralar bilan belgilanishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar hudud boshqaruv rejasining ajralmas qismi bo'lishi shart.

Ikkinchidan, ekologik yuklama chegarasi mezonini. Botqoqli hududlardan xo'jalik, rekreatsion yoki suv xo'jaligi maqsadida foydalanish miqdoriy limitlar asosida amalga oshirilishi kerak. Suv olish, baliqchilik, chorva boqish, infratuzilma qurilishi kabi faoliyatlar uchun ruxsat etilgan yuklama darajasi ekologik sig'im (carrying capacity) hisob-kitoblariga asoslanishi lozim.

Uchinchidan, ehtiyotkorlik va oldini olish mezonini. Ramsar obyektida rejalashtirilayotgan har qanday loyiha majburiy ekologik ekspertizadan o'tkazilishi va uning ekologik xarakterga ta'siri baholanishi zarur. Salbiy oqibatlar ehtimoli mavjud bo'lsa, ruxsatnoma berilmasligi yoki qo'shimcha kompensatsion choralar ko'rilishi normativ darajada mustahkamlanishi lozim.

To'rtinchidan, moslashuvchan boshqaruv mezonini. Monitoring natijalari asosida boshqaruv rejimlarini o'zgartirish, vaqtinchalik chekllovlar joriy etish yoki faoliyatni to'xtatish mexanizmi huquqiy jihatdan belgilanishi zarur. Bu mezon oqilona foydalanishni dinamik va ilmiy asoslangan boshqaruv modeli sifatida talqin etadi.

Beshinchidan, sektorlararo muvofiqlashtirish mezonini. Ekologiya, suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va hududiy boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarining aniq taqsimlanishi hamda qaror qabul qilishda majburiy kelishuv tartibi joriy etilishi lozim. Ramsar obyektlari bo'yicha qarorlar yagona boshqaruv platformasi orqali qabul qilinishi implementatsiya samaradorligini oshiradi.

Mazkur mezonlarning normativ mustahkamlanishi Ramsar konvensiyasi talablarini "indikator – boshqaruv rejimi – huquqiy oqibat" zanjiri asosida institutsionallashtirish imkonini beradi. Bu esa formal inkorporatsiya bosqichidan mazmuniy va tizimli implementatsiya bosqichiga o'tishni

anglatadi. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida Ramsar konvensiyasi majburiyatlari huquqiy asoslar bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, oqilona foydalanish tushunchasini aniq indikatorlar, miqdoriy mezonlar va adaptiv boshqaruv mexanizmlari bilan boyitish implementatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur yondashuv botqoqli hududlarning ekologik barqarorligini ta’minlash, biologik xilma-xillikni saqlash va suv resurslaridan oqilona foydalanishning xalqaro-huquqiy talablarini milliy darajada to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

#### IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Ramsar Convention Secretariat. (2002). Resolution VIII.14: New guidelines for management planning for Ramsar sites and other wetlands. Ramsar COP8. <https://www.ramsar.org>
2. Ramsar Convention Secretariat. (2020). National Report to COP14: Uzbekistan. <https://www.ramsar.org>
3. Ramsar Convention Secretariat. (n.d.). Country profile: Uzbekistan. <https://www.ramsar.org/country-profile/uzbekistan>
4. Ramsar Sites Information Service. (n.d.). Annotated list of Ramsar Sites: Uzbekistan. <https://rsis.ramsar.org>
5. Finlayson, C. M., & Davidson, N. C. (2018). The Ramsar Convention and ecosystem-based approaches to wetland management. *Marine and Freshwater Research*, 69(6), 973–985. <https://doi.org/10.1071/MF17040>
6. Davidson, N. C. (2014). How much wetland has the world lost? Long-term and recent trends in global wetland area. *Marine and Freshwater Research*, 65(10), 934–941. <https://doi.org/10.1071/MF14173>
7. Matthews, G. V. T. (2013). The Ramsar Convention on Wetlands: Its history and development. *Environmental Policy and Law*, 43(3), 125–132.
8. Gardner, R. C., & Finlayson, C. M. (2018). Global wetland policy and the Ramsar Convention. *Wetlands Ecology and Management*, 26(4), 579–593. <https://doi.org/10.1007/s11273-018-9598-1>
9. Sand, P. H. (2016). The effectiveness of international environmental agreements: The case of wetlands. *Review of European, Comparative & International Environmental Law*, 25(3), 343–352. <https://doi.org/10.1111/reel.12174>
10. Ziganshina, D. R. (2015). International water law in Central Asia: Commitments, compliance and challenges. *Water International*, 40(1), 96–112. <https://doi.org/10.1080/02508060.2014.985197>
11. Tobirov O.Q. Yer yuzasidagi suvli-botqoq yerlarning geografik taqsimoti. “GEOGRAFIYA FANINING DOLZARB MASALALARI: IQLIM O‘ZGARISHI, HUDUDYIY RIVOJLANISH VA TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 23-24 MAY, 2025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15633274>
12. Ramsar Sites Information Service. (n.d.). Annotated list of Ramsar Sites: Uzbekistan. <https://rsis.ramsar.org>
13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023. <https://lex.uz>
14. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi. <https://lex.uz>
15. Australian Government. (2016). Australian Ramsar management principles and management planning requirements. Department of the Environment and Energy. <https://www.dcceew.gov.au/water/wetlands/ramsar>
16. Department of Climate Change, Energy, the Environment and Water. (2025). Ramsar wetlands of international importance: National framework and reporting obligations. Australian Government. <https://www.dcceew.gov.au>
17. Indian Wetlands. (n.d.). National framework for Ramsar site management in India. Ministry of Environment, Forest and Climate Change. <https://indianwetlands.in>

**YURIST AXBOROTNOMASI**

2-SON

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**

НОМЕР 2

**LAWYER HERALD**

ISSUE 2

**ISSN 2181-9416**

**DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2**

**2026-YIL**